



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 06 | pp. 35-41 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI



Sulxonberdiyeva Shodiya Shuxrat qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Karimova Komila Daniyarovna

i.f.n., dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada butun bir mamlakatning yuragi yani tijorat banklarning ahamiyati va hozirgi kunda tutayotgan o'rni haqida bir qator tahlillarda asoslangan fikr mulohaza hamda takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Bank, iqtisodiyot, tijorat banklari, bo'sh turgan pul mablag'lari, jahon amaliyoti, bank tizimi, pul, bank operatsiyalari, bank xizmatlari, kredit, depozit.

Annotation. This article presents a series of analyses and suggestions on the importance of commercial banks, the heart of a country, and their current role.

Keywords. Bank, economy, commercial banks, idle funds, world practice, banking system, money, banking operations, banking services, credit, deposit.

Аннотация. В статье представлен ряд анализов и предложений о важности коммерческих банков, сердца страны и их современной роли.

Ключевые слова. Банк, экономика, коммерческие банки, свободные средства, мировая практика, банковская система, деньги, банковские операции, банковские услуги, кредит, депозит.

KIRISH.

Bilamizki, har bir mamlakatni tutgan o'rni uni iqtisodiyoti bilan bevosita bog'liq, mamlakatning iqtisodiyoti esa uning banklari bilan uzviy bog'liq. Mamlakat hech qachon banklarsiz yaxlit bir davlat bo'la olmaydi. Mamlakat iqtisodiy tizimning asosiy bo'g'ini bu bank hamda moliya tizimidir. Davlatning har bir banki qilayotgan amaliyotlari, funksiyalari hamda kirim chiqimi davlatning moliyaviy xolatini ko'rsatib beradi. O'zbekiston Respublikasida bank tizimi 2 pog'onali deb yuritiladi. 1-pog'ona O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bo'lsa, 2-pog'onasi bu tijorat banklari hisoblanadi. Tijorat banklaridagi barcha operatsiyalar hamda funksiyalar Markaziy bank tomonidan nazorat qilinadi. Banklarning iqtisodiyotda tutgan o'rni ularning funksiyalari kabi ma'lum darajadagi xususiyatlarga egadir. Banklar mulkiy jihatdan qanday shaklda tashkil topgan bo'lishidan qat'iy nazar, iqtisodiyotda umum ahamiyatga ega bo'lgan va muhim operatsiyalarni bajaradi. Shu boisdan ham, banklar qanday mulkiy shaklda yo ixtisoslikda tashkil topgan bo'lishidan qat'iy nazar, ular iqtisodiyotda alohida va yetakchi ahamiyatga ega. Darhaqiqat, tijorat banklari xizmatlar bozorining rivoji nafaqat xalq

xo'jaligiga kapitalni taqsimlashga, balki aholiga axborot berish, to'lovlarni tezlashtirish va boshqa bir qancha qulaylik hamda imkoniyatlarni yaratib beradi.

Bank xizmatlari va faoliyatning turli yo'nalishlari o'rtasidagi aloqa imkoniyatlarini oshirish orqali yangi bank xizmatlarini yaratish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni oqilona boshqarishni talab etadi. Shu bilan birga, bank xizmatlari sohasini diversifikatsiya qilish tendentsiyasi kuchaymoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-sonli qaroriga ko'ra bank xizmatlar bozorini samardorligini oshirishda ko'plab vazifalar belgilangan. Birinchidan bank faoliyatining ilg'or xalqaro tajribasini o'rganish va bank xizmatlari va mahsulotlarining yangi turlarini joriy etish vazifasi qo'yilgan.[1]¹

ADABIYOTLAR SHARHI.

Tijorat banklari zamonaviy bozor iqtisodiyotining asosiy moliyaviy institutlaridan biri sifatida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va aholi farovonligining ta'minlanishida muhim o'rin tutadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bank tizimining iqtisodiyotdagi roli ko'plab tadqiqotlar asosida yoritilgan. Jumladan, Mamatqulov M.Aning "Moliya va moliyaviy siyosat asoslari" (2021) asarida tijorat banklari moliya bozorining faol subyekti sifatida ta'riflanadi. Muallif banklarning moliyaviy resurslarni jamg'arish va qayta taqsimlash funksiyalarini asoslab beradi. To'xtamurodov B.X. esa "Davlat moliyasi" (2020) nomli asarida tijorat banklarini pul-kredit siyosatining bevosita ijrochilari sifatida baholab, ularning byudjet-moliya munosabatlaridagi o'rnini ham alohida tahlil qiladi.

Xalqaro adabiyotda tijorat banklari iqtisodiy o'sishning katalizatori sifatida qaraladi. Levine (2005) o'zining "Finance and Growth: Theory and Evidence" asarida bank tizimining rivojlanishi investitsiyalar hajmi va samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirishini ilmiy asosda isbotlaydi. Uning tadqiqotlari ko'rsatishicha, banklar kredit ajratish va monitoring xizmatlari orqali resurslarni samarali taqsimlaydi. Shuningdek, Demirgüç-Kunt va Maksimovich (2002) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda moliyaviy vositachilik xizmatlari rivojlangan davlatlarda bank tizimi iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi qayd etilgan.

Tijorat banklarining sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tarmoqlari bilan aloqasi O'zbekiston adabiyotlarida keng tahlil qilingan. Jumladan, Xodjayev A. va Xaydarov I. tomonidan yozilgan "Bank ishi" (2022) darsligida tijorat banklarining real sektor korxonalariga kredit ajratishdagi mezonlari va tahlil usullari bayon etiladi. Mualliflar bank kreditlarining ishlab chiqarish hajmi, ish o'rinlari yaratilishi va eksport salohiyatiga ijobiy ta'sirini misollar asosida ko'rsatib bergan. Shuningdek, ular banklar va kichik biznes o'rtasidagi hamkorlik modellarini tahlil qilib, O'zbekistondagi misollarni xorijiy tajriba bilan solishtirgan.

Zamonaviy banklar nafaqat kredit va omonat operatsiyalarini, balki elektron bank xizmatlari, onlayn to'lovlar, investitsiya konsaltingi kabi xizmatlarni ham ko'rsatmoqda. Bu jihatlar Bazarov A.Aning "Bank marketingi" (2021) nomli asarida chuqur yoritilgan.

¹ . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-sonli qarori

Muallif bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasi mijozlarga qulaylik, banklarga esa xarajatlarni qisqartirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini berishini ta'kidlaydi.

Xalqaro miqyosda esa Philip Molyneux va John Wilson kabi mualliflar tijorat banklarining transformatsion roli, fintech bilan integratsiyasi, shuningdek, ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) mezonlariga asoslangan bank amaliyotlarini tahlil qilgan. Ular zamonaviy tijorat banklari uchun raqamlashtirish va yashil moliyalash strategiyalarining dolzarbligini urg'ulaydi.

Tijorat banklari moliyaviy tizim barqarorligi va likvidlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Bu borada IMF, World Bank va BIS (Bank for International Settlements) tomonidan chop etilgan yillik tahliliy hisobotlar asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Jumladan, "Global Financial Stability Report" (IMF, 2023)da bank sektorining barqarorlikka ta'siri, xatarlarni baholash va kapitallashtirish talablari yoritilgan.

O'zbekiston tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, 2017-yildan keyingi bank islohoti doirasida tijorat banklari faoliyatida tub o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik tahlillarida (2018–2024) moliyaviy vositachilik ko'rsatkichlari, aktivlar sifati, kapital yetarliligi va kredit portfeli tarkibi haqida ma'lumotlar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Bilamizki, jamiyatdagi barcha faoliyat yuritayotgan subaktlar foyda olish maqsadida ish boshlashadi. Tijorat banklari ham xuddi shunday foyda olish maqsadida faoliyatini yuritib bormoqda. Buning uchun turli xil zamonaviy hamda rejali yo'llardan foydalanmoqda. Misol uchun, masofaviy bank xizmatlariga sarmoya kiritmoqda. Bugungi kunda masofaviy bank xizmatlarining paydo bo'lishi bilan moliya institutlari mijozlarning pullarini boshqarish usullarini qayta shakllantirmoqda. Texnologik taraqqiyot tufayli yuzaga kelgan ushbu paradigma almashinuvi nafaqat tendentsiya, balki bank sohasidagi inqilobdir. Keling, masofaviy bank xizmatlarining evolyutsiyasini, ularning asosiy xususiyatlari va iste'molchilarga ham, moliya institutlariga ham qator afzalliklarga ega. Masofaviy bank xizmatlari keng ko'lamli raqamli yechimlarni o'z ichiga oladi, bu mijozlarga g'isht va ohak filialida jismoniy mavjud bo'lmasdan bank operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beradi. Sayohat mijozlarga qoldiqlarni tekshirish, pul mablag'larini o'tkazish va to'lovlarni xavfsiz veb-portallar orqali to'lash imkonini beruvchi onlaynbankingni joriy etish bilan boshlandi. Bugungi kunda masofaviy bank xizmatlari mobil bank ilovalari, virtual yordamchilar, sun'iy intellekt va biometrika kabi ilg'or texnologiyalarni qamrab olgan holda kengaydi. O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini rivojlanish istiqbollari bo'yicha olib borgan tahlillar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish, mijozlarga masofadan turib xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish bo'yicha har bir tijorat banki o'zining strategik dasturini ishlab chiqishi lozim. Mazkur dasturda qadamma-qadam barcha xizmat turlarini masofaviy hamda onlayn rejimga o'tkazish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqish kerak. Mazkur yo'l xaritasida belgilangan vazifalarni moliyalashtirish manbasi, amalga oshirish muddatlari, amalga oshirish uchun mas'ul boshqarma hamda loyihani ishga tushirish muddatlari kabilar keltirib o'tilishi zarur.

2. Xozirgi kunda tijorat banklari tomonidan masofaviy tarzda ko'rsatiladigan xizmat turlariga kommunal va boshqa to'lovlar hamda kartadan kartaga pul o'tkazmalari,

onlayn konversiya, onlayn omonat xizmatlari, shuningdek, ayrima banklarda chakana kreditlash xizmatlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, kelgusi bosqichda ularning turini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, xalqaro pul o'tkazmalariga integarsiyalashuv orqali xorijga mablag'larni jo'natish va qabul qilish, plastik kartalar virtual emmissiyasi xizmatini kiritish kabilar shular jumlasidan.

3. Masofaviy bank xizmatlarini rivojlanishi mijozlarni identifikatsiya qilishga bo'lgan zaruriyatni yuzaga chiqarishi tabiiy holat. Shuni inobatga olgan holda, barcha mobil-bank xizmatlariga mijozga xizmat ko'ratishda xodimni identifikatsiya qilish zaruriyati yuzaga kelganda, Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlar bazasidan integratsiya qilish imkoniyatlarini yaratib berish maqsadga muvofiqdir. [2]²

Bugungi kunda O'zbekiston bank tizimi yuqori konsentratsiyasi bilan ajralib turadi: barcha bank aktivlarining 86% hali davlatga, 70% esa 5 ta davlat banklari (Milliy bank, Asaka bank, Sanoat qurilish bank, Ipoteka bank va Agro bank) ga qarashli. Shuningdek, kreditlarga nisbatan davlat ulushi bo'lgan bank omonatlarining ulushi 31,5 foizni tashkil etishi qayd etildi. Taqqoslash uchun, xususiy banklarda bu ko'rsatkich 100% ga teng.

Tijorat banklarida chakana xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish, ulargi xorij tajribasini joriy etish bilan bog'liq muammolar ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan ko'plab chakana xizmatlarning o'ziga xos jihatlari, ularning rivojlanishidagi mavjud muammolarni tadqiq etgan. Xususan, A.S.Goncharuk tomonidan bank xizmatlari -bu aholiga tijorat bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlarini qondirish uchun standartlashtirilgan bank maxsulotlariga asoslangan xizmatdir" degan g'oya shakllantirildi. Bank xizmatlarini yo'naltirilish maqsadi va texnologiyasi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bizning fikrimizcha, «Bank xizmatlari bu-jismoniy shaxslarning aniq bir bank xizmatlariga bo'lgan shaxsiy yoki oilaviy ehtiyoj, xoxish hamda talablarini qondirish uchun tijorat banklari tomonidan taklif etiladigan, tijorat faoliyatiga yo'naltirilmaydigan bank xizmatlari yig'indisidir». Amalga oshirishda tijorat banklarida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishda axborot texnologiyalarini joriy etishda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma hamda og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tijorat banklarining yana bir samarali dividend siyosati quyidagi afzalliklarni beradi. Tijorat banklari uchun oqilona va samarali dividend siyosatini tuzish uchun bir qancha jihatlarga alohida e'tibor berish kerak deb hisoblaymiz. Tijorat banklari dividend siyosatida dividend to'lab borishga muntazam e'tibor qaratish bilan birga investorlarga to'lanadigan aksiyalar daromadlilik darajasini ham hisobga olish kerak. Chunki aksiyalar yuqori riskli qimmatli qog'oz hisoblanishi bois tijorat banklari dividend darajasi eng avvalo omonat va depozitlar foiz stavkasidan yuqori bo'lishi kerak. Umumiy holda moliyaviy aktivlar risk darajasidan kelib chiqqan holda hamda investorlar talabi asosida

² Гончарук С. А. Институциональный аспект развития сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. унт им. К.Л. Хетагурова - Шахти, 2018. - 183 с


daromadlilik darajasining oshib borishini R.Kunarov va J.Bo'rievlar quyidagi keltirib o'tgan:

-Oddiy aksiyalar bo'yicha daromadlilik (kurs o'sishi va foizli daromadlar asosida); - Imtiyozli aksiyalar bo'yicha daromadlilik (kurs o'sishi va foizli daromadlar asosida);

-Korporativ obligatsiyalar bo'yicha daromadlilik (kurs o'sishi va foizli daromadlar asosida).

Olib borilgan izlanishlarimiz va o'rganishlarimiz natijasida, tijorat banklari amaliyotida dividend siyosati bankning sof foydasini taqsimlash orqali tashkil etilgan. Shunday bo'lsada, tijorat banklarining deyarli ko'pida dividend to'lovlari yilik inflyasiya darajasidan past to'langanligi investorlarni qoniqtirmaydi. Buning oqibatida, tijorat banklari kapitalining o'sish darajasi bugungi kun talabiga mos emas. Shuning uchun ham O'zbekiston bank tizimini rivojlantirish uchun ilg'or xorijiy tajriba asosida tijorat banklaridagi dividend siyosati rolini oshirish dolzarb hamda amaliy ahamiyatdagi masala bo'lib, shu nuqtai nazardan banklar bu masalaga jiddiy e'tibor qaratishlari talab etiladi.

Banklarning iqtisodiyotda bajaradigan yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri, bu ularning xo'jalik yurituvchi subyektlar, aholi va davlat tashkilotlari o'rtasida amalga oshiriladigan hisob - kitoblarni tashkil etishi va ularning ustidan tegishli nazorat ishlarini amalga oshirish hisoblanadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyotida sharoitida xo'jalik subyektlari o'rtasida har kunda bir necha yuz minglab pul o'tkazmalari amalga oshiriladi. Bularning barchasi banklar tomonidan amalga oshiriladi hamda tartibga solib turiladi. Shu sababli ham banklar iqtisodiyotimizning yetakchi va asosiy bo'g'ini hisoblanadi.



1-rasm. Jismoniy shaxslar uchun chakana bank xizmatlari³

Tijorat banklarining eng muxim operatsiyalardan biri bu chakana bank xizmatlari hisoblanadi. Ushbu operatsiyada mijoz hamda bank o'rtasida munosabatlar vujudga keladi. Chakana kreditlar bozori har xil bo'lib, muayyan ehtiyojlarni qondirish uchun mo'ljallangan turli xil kredit mahsulotlari mavjud. Ipoteqa, iste'mol kreditlar, ta'lim

³ Muallif ishlanmasi

kreditlari hamda avtokreditlar inson hayotining turli jabhalarini qamrab oluvchi moliyaviy vositalarga misoldir. Texnologiyaning paydo bo'lishi kreditlash landshaftida ham inqilob bo'ladi. Onlayn kreditlash platformalari va mobil ilovalar qarz olish jarayonini yanada samarali, qulay va shaffof qilib qoydi. Bu raqobatning kuchayishiga hamda mijozlar tajribasining oshishiga olib keldi. Lekin chakana kreditlashda ham asosiy risklardan biri bu kredit riskidir. Kreditorlar qarz oluvchining kredit qobiliyatini to'g'ri baholash muammosiga duch kelishadi. Ishni yo'qotish yoki sog'liq muammolari kabi kutilmagan holatlar tufayli defoltlar yuzaga kelishi mumkin boldi, bu esa kreditorlar uchun risklarni boshqarish bo'yicha mustahkam strategiyalarni amalga oshirishda juda muhim ro'l o'ynadi. Xususan, iqtisodiy tanazzul hamda bozorning o'zgaruvchanligi jismoniy shaxslarning kreditlarni to'lash qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Kreditorlar qiyin iqtisodiy sharoitlarda harakat qilish uchun chidamli va moslashuvchan bo'lishi kerak. Jismoniy shaxslarga kredit berish moliyaviy sektorning dinamik va hayotiy jihati bo'lib, jismoniy shaxslarni o'z intilishlariga erishish uchun vositalar bilan ta'minlaydi. Imkoniyatlar ko'p bo'lsa ham, kreditorlar ehtiyotkorlik va innovatsiyalar bilan bog'liq xavflarni boshqarishlari kerak. Texnologiya kreditlash landshaftini qayta shakllantirishda davom etar ekan, ularni tartibga solish va yuzaga keladigan risklarni oqilona boshqarishni talab etadi. Shunday qilib, chakana kreditlar ham shaxslarni farovonlikka, ham jamiyatni kengroq iqtisodiy taraqqiy topishiga hissa qo'shishlari mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda bank-moliya tizimini shakllantirishda shu jumladan, tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish masalalari, shuningdek, hukumat tomonidan mamlakat bank sektorini modernizatsiya qilish bo'yicha qabul qilingan bir qator oqilona qarorlar o'z taqbig'ini topmog'i shart. Keyin banklar tijorat samaradorligini oshirish o'rta va uzoq muddatli strategiyani shakllantirish mumkin. Bizningcha, bank xizmatlari bank operatsiyalarini samarali amalga oshirishga yordam beradi hamda bu operatsiyalar bilan birlashgan holda bank mahsulotlarini yaratadi. B Samarali bank faoliyatni olib borish uchun banklar mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlar o'rnatish chakana bank faoliyatida muvaffaqiyatli kalitidir. Ularning ehtiyojlariga e'tibor qaratish, manfaatli yechimlarni taqdim etish hamda ochiq muloqotni davom ettirish orqali banklar chakana bank mahsulotlarini samarali sotishi va mijozlarining umumiy qoniqishiga hissa qo'shishi mumkin.

Bank xizmatlari esa mijozlar tajribasini yaxshilash va mijozlarga ushbu mahsulotlardan samarali foydalanishga yordam berish sababli taqdim etiladigan qo'llab-quvvatlash, yo'l-yo'riq va o'zaro aloqalardir. Shuning uchun ham bank mijozlari o'zlarining moliyaviy ehtiyojlarini qondirish va moliyaviy maqsadlariga erishish uchun ko'pincha bank mahsulotlari hamda xizmatlaridan foydalanadilar. Undan tashqari tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini sotishning me'yoriy huquqiy asoslarini shakllantirish nafaqat iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, balki bank sohasining barqarorligi, raqobatbardoshligi va rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Me'yoriy huquqiy asosning mavjudligi tijorat banklari, iste'molchilar va iqtisodiy manfaatlarini muvozanatlash uchun zarur tuzilmani ta'minlash bilan birga chakana bank mahsulotlari mas'uliyatli va xavfsiz tarzda taklif qilinishini amalga oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-sonli qarori
2. Гончарук С. А. Институционаше аспект развитиуа сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. унт им. К.Л. Хетагурова - Shaxti, 2018. - 183 с
3. Smith, J. A. (2018). The Historical Evolution of Retail Banking: A Comprehensive overview. Banking History Journal, 30(2), 45-62.
4. Martin, A. H. (2019). Retail Banking Through the Ages: A Comparative Historical Study. Journal of Financial Evolution, 12(2), 145-162.
5. Борисов А. Б. Большой экономический словарь. М.: Книжный мир, 2004. 895 с
6. Povarov A.V., Maramygin M. S. Retail block of a commercial bank as a management system. Journal of new economy. 2012. No. 1 (39). pp. 91-97
7. Enrico Onali, Ramilya Galiakhmetova, Philip Molyneux Giuseppe Torluccio. CEO power, government monitoring, and bank dividends. // Journal of Financial Intermediation. Volume 27, July 2016, Pages 89-117
8. Kunarov R.R. va Bo'riev J.P. Tijorat banklari dividend siyosati xususiyatlari // Xalqaro moliya va hisob. №4. 2020 yil.
9. <https://lex.uz/uz/>

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

